



Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ISAAK NYUTON
(1643-1727)



2022
APREL
№39



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00



www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
11-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-11**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-11**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 39-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 9 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ

1. Turdaliyev Nurillo Xayrullo o‘g‘li	
O‘ZBEK XALQ MILLIY O‘YINLARI KURASH VA FUTBOL.....	7



ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ

O'ZBEK XALQ MILLIY O'YINLARI KURASH VA FUTBOL

Turdaliyev Nurillo Xayrullo o‘g‘li

Andijon davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti jismoniy madaniyat yo`nalishi 2 – bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq milliy o‘yinlari, ularning ahamiyati, bizning hayotimizdagi o‘rni, futbol va kurash o‘yinlari, ularning tarixi, inson salomatligiga foydasi haqida yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: Milliy o‘yinlar, tarbiyaviy ahamiyat, halollik, chaqqonlik, chidamlilik, mardlik, sog‘lik, dunyoga mashhur, arxeologik ilmiy kuzatuv, qadimiy, polvonlar, kurash, futbol, jismoniy kamolot, ma’naviy kamolot.

Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo`lib kelgan. Ammo biz yashayotgan masha shu asrda bu masala haqiqatdan ham hayot – mamot masalasiga aylanib bormoqda.

“Tarbiya qancha mukammal bo`lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, - deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo`lishi uchun esa bu masalada bo`shliq paydo bo`lishiga mutlaqo yo`l qo`yib bo`lmaydi. [1.504]

Milliy o‘yinlarimizning tarbiyaviy ahamiyati bisyor. Ammo ularning boshqa xususiyati ham yo‘q emas. Milliy o‘yinlar millatni, xalqni dunyoga mashhur qilishi ham mumkin. Mana, o‘zbek kurashini oling. Uning insonni halollikka, mardlikka chorlovchi jihatni necha-necha xalqlarni o‘ziga maftun etdi. Ba’zi sport turlariga o‘xshab, unda raqiblar bir-birining burnini qonatmaydi, tahqirlamaydi, jismonan ozor bermaydi. [2]

Kurash bizda uzoq davrlardan ma’lum. Arxeologik ilmiy kuzatuvlar, qidiruvlar natijasida aniqlangan ko`plab ashyoviy dalillar uning yoshi kamida 3 ming yildan ziyod ekanligini isbotlaydi.

Kurash temuriylar zamonida ham, undan keying davrlarda ham xalqimizning sevimli mashg‘uloti bo`lib kelgan. Olamga dong taratgan o‘zbek polvonlari kurash tarixi sahifalarida o‘chmas iz qoldirganlar. Shoir Pahlavon Mahmud va Ahmad polvonlar o‘z davrining yengilmas kuchlari sirasidan edilar.

Istiqlol sharofati va kurash mutasaddilarining tinimsiz harakatlari bois o‘zbek kurashi jahonda yangi sport turi sifatida shiddat bilan ommalashdi, dunyo hamjamiyati e’tiborini qozondi va ko`plab mamlakatlarga tarqaldi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o‘tmishda yashab o‘tgan barcha pahlavonlar va ulug` allomalarning ruhlarini shod etishni kurask bo`yicha xalqaro turnirlar o‘tkazish bilan boshlagan edilar. O‘tkazilgan xalqaro turnirlar o‘zbek kurashining yuksak darajaga ko`tarilishiga katta hissa qo`shdi. Kurash mana shu ilk musobaqalardayoq jozibadorligi va jangovarligi, go`zalligi va halolligi bilan barcha ishtirokchilarning, xorijiy mutaxassislarining mehrini qozondi. [3.77]

Millionlab insonlarning sevimli sport turi bo`lmish futbol ham aslida bir xalqning milliy o‘yini, aslida. U ham xuddi bizning kurashimiz singari o‘zining go`zalligi, maftunkorligi bilan dunyonи zabt etdi.

Futbol tarixi ham uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Futbolga o‘xshash o‘yinlar eramizgacha Sharq va antic dunyo davrlarida paydo bo`lgan. Futbol – inglizcha “fut” – oyoq va “bol” – to`p so‘zlaridan kelib chiqqan. Hozirgi kundagi futbol qoidalari 100 yillardan beri o‘zgarishsiz qolib kelmoqda.

Futbol Yer yuzida o‘ta sevimli va ommabop o‘yin hisoblanadi. Bu sport turining oddiyligi va qulayligi, o‘yinchilar o‘z mahorati va o‘zini tutishlarini namoyon eta olish imkonini borligi bilan ishqibozlarni jalb qiladi.



Shu qatori bu o‘yin o‘quvchilarning sog‘ligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Futbol bilan doimiy shug‘ullanish tezlik, chaqqonlik, chidamlilik, quvvatli bo‘lish, mo‘ljal olish kabi xislatlarni o‘stiradi. O‘yinda futbolchiga katta og‘irlik tushadi, bu esa uning iroda kuchini tarbiyalaydi. Futbol, asosan, ochiq havoda o‘ynalganligi sababli, o‘quvchilarning atrof – muhit ta’siriga chidamliliginи oshiradi. [4.87]

Xulosa

Milliy o‘yinlar haqida qancha gapirsak, ozdek tuyuladi. Bugun shaharlarimizda barpo etilgan bolalar maydonchalarini ko‘rib ko‘z quvonadi. Ularda shodon qiyqirib o‘ynayotgan bolakaylarga ota-onalari milliy o‘yinlarimizni ham o‘rgatishsa, nur ustiga nur bo‘lardi. Bolaligidan milliy o‘yinlar o‘ynab, qalbi pokiza hislarga oshno bo‘lib ulg‘aygach, o‘smirlilik damlari ham mazmunli, qiziqlarloq o‘tarmidi. Har holda shafqatsizlik targ‘ib qilingan, ruhiyatni buzishgagina yaraydigan bir tiyinga qimmat ko‘pgina kompyuter o‘yinlaridan ko‘ra insonni harakatga undaydigan, jismoniy va ma’nan kamolotiga xizmat qiladigan milliy o‘yinlarimiz yuz ming chandon afzalroqdir. Shu bilan birga sport bilan shug‘ullanish, chiniqish, badantarbiya qilish, ochiq havoda bo‘lish inson uchun nechog‘lik foydali ekanligi barchamizga ma’lum. Vatanimizda yoshlarni jismonan sog‘lom, quvnoq, o‘z xalqiga sadoqatli, mehnat qilishga tayyor va vatanini himoya qiluvchi avlod bo‘lib yetishishida o‘zbek xalq o‘yinlarining o‘rni ham muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘XATI

1. Shavkat Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz 1. Toshkent – “O‘zbekiston” 2018.
2. <https://uzhurriyat.uz>
3. Jismoniy tarbiya 9-sinf uchun darslik. Toshkent 2006
4. Jismoniy tarbiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Toshkent 2009

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 11-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000